



“RUSTAMXON” DOSTONINI O’RGATISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Saydullayeva Ziyoda

TDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7511311>

ARTICLE INFO

Received: 26th December 2022

Accepted: 05th January 2023

Online: 06th January 2023

KEY WORDS

Muammoli ta’lim, mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyat, muammoni yechish, dars xarakteri.

ABSTRACT

O‘qitish jarayonida maqsad bo‘yicha natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ham ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida mustaqil fikrlay olsa, ijod qilsa, izlansa, tahlil qilsa, xulosa chiqarsa, o‘zlariga guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratsa, shu o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Adabiyot darslarida muammoli ta’lim metodi muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta’lim metodi – mustaqil, mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, bu yo‘lda uchragan to‘siqlarni mustaqil ravishda, unga ijodiy yondashgan holda bartaraf etish garovidir. U o‘quv materialini o‘zlashtirilganligining isbotini ta’minlaydi, uni mustahkam qiladi, bilimlarni qat’iylashtiradi.

Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi.

Muammoli ta’lim jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish.
2. Muammoni yechish bo‘yicha taxminlarni shakllantirish.
3. Yechimning to‘g‘riligini tekshirish (olingan yechim bilan bog‘liq axborotni tizimlashtirish orqali)

Quyida “Rustamxon” dostonini muammoli ta’lim metodi orqali o‘rganish yo‘llari va muammoli ta’lim texnologiyasining ta’lim jarayonidagi ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

“Rustamxon” dostoni ishqiy-qahramonlik dostoni bo‘lib, xalqning azaliy orzu-istaklari, milliy dunyoqarashi mujassamlashgan. Dostondagi obrazlarning o‘ziga xos xarakter xususiyatga egaligi, voqealarning sarguzashtlar bilan boyitilganligi kitobxon diqqatini tortadi. Bu esa, dostonning soddaligi, xalqchilligi, qiziqarli ekanligini bildiradi.

O‘quvchilar puxta muammoli tahlil qila olishlari uchun “Rustamxon” dostoni matni bilan yaxshi tanishibgina qolmay, uni to‘liq o‘qib chiqqan bo‘lishlari ham kerak. Chunki to‘liq o‘zlashtirilgan fikrgina mag‘izli fikr uyg‘otadi, singdirilgan hissiyotgina o‘zgada ham tuyg‘u qo‘zg‘ata biladi. Doston muammoli metod bilan tahlil etilganda o‘quvchirni shunchaki



muammo yuzasidan bahsga tortish kerak emas, balki ularning butun intellektual kuchi tekshirilayotgan badiiy matnning mag'zini chaqishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim

O'quvchining asar matnini qayta hikoyalashga jalb qiladigan topshiriqlar yoki dars jarayonida o'qituvchining aytganlarini bajarishiga tayanibgina uning fikrlashidagi mustaqillik darajasini aniqlash mumkin emas. Buning uchun o'quvchini munosabat bildirishga, fikr aytishga undovchi: "Mazkur asarni o'qish sizda qanday tuyg'ularni uyg'otdi?", "Asarning sizga yoqqan yoki yoqmagan jihatlari haqida fikringizni bildiring" singari savollar va yechilishi zarur jiddiy muammo qo'yish orqali amalga oshiriladi. Bunday topshiriqlarni bajarishda o'quvchi o'qigan badiiy matnga o'zining shaxsiy munosabatini ifodalashi lozim bo'ladi.

Dostonning to'liq matnini o'qishni uyga topshirish bilan birga keyingi dars xarakteri haqida – dars muammoli tarzda, munozara shaklida bo'lishi to'g'risida ma'lumot beriladi. So'ng «Dostonda ayol obrazlari qanday gavdalantirilgan?», «Rustam nima uchun podsholikni rad etdi, deb o'ylaysiz?», «Dostonning qaysi qahramoni o'z tabiati bilan sizga ko'proq ma'qul? Nega?» va «Sultonxonni hukmdor, turmush o'rtoq va ota sifatidagi xarakterlari haqida nima deya olasiz?» shaklidagi o'quvchilarni o'ylash, tahlil qilishga, munosabat bildirish va fikrini asoslashga undaydigan muammoli savollar adabiyot daftoriga yozdirib qo'yiladi

«Rustamxon»da o'z davrining ijtimoiy-siyosiy munosabatlari, ishq-muhabbat sarguzashtlari, turli fantastik uydirmalar, ertaklarga xos voqealarning yuksak badiiyati bilan yo'g'rilgan tasvirlar kishini hayajonga soladi. «Matnga asoslanib asar matnida xalqimizning qadimiy, boy tiliga xos fazilatlar, xalqona ibora va ifodalar, yorqin namoyon bo'lgan o'rinlarga o'z munosabatingizni bildiring.

Huroyimning kundoshlari qilmishlariga qanday baho berasiz? Ularning o'ziga xos asl sabablari to'g'risida o'ylab ko'ring.

– Bolam! – deb qaytardi Rustamday uldi, – Tavba qilib o'zi axtarib keldi, Chopib tashlab, bolam, senga ne bo'ldi? Qanday bo'lsa, qo'zim, manmanlik qilma, «Rustam otasini chopibdi» degan Lanqa gapni, qo'zim, o'zingga olma. Bu holni nima bilan izohlash mumkin, deb o'ylaysiz? Siz uning o'rnida nima qilgan bo'lardingiz?», «Rustamning: «darvesh sifatida kelgan Sultonxonni qilich bilan chopmoqchi bo'lgan vaqtdagi holatini batafsil tasvirlashga urinib ko'ring.

Dostonlardagi asosiy qahramonlar qiyofasida qanday oliyjanob fazilatlar umumlashtiriladi? Fikringizni asoslashga urining», «Siz Sultonxon va Huroyimning ruhiyatini tushunishga urinib ko'ring.

Matndan misollar keltirgan holda Huroyimga ona sifatida tavsif bering. Odamzod uchun do'st bilan dushmani, yaxshi bilan yomonni ajratish qanchalar qiyin ekani haqida o'ylab ko'ring, fikr ayting», «Siz asardagi kundoshlardan nafratlanasizmi, Momogul mastondanchi?» kabi savol-topshiriqlarni vaziyatga qarab zarurini o'rtaga tashlash mumkin bo'ladi.

Asar mutolaasiga bunday nazar bilan yondashgan o'quvchi o'qish davomida har bir fikrga, har qanday jumlagga e'tibor bilan qaraydi. Keyingi darsga har biri o'zining darajasida ishtiyoq va tayyorgarlik bilan kelishi, tabiiy.

References:

1. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1992. –333 b. Kirilda yozilgan adabiyotlar aslicha berilishi kerak.



2. Ibragimov R. Muammoli dars bosqichlari. // Xalq ta'limi. 1998. -3. -B. 76-78.
3. Yo'ldoshev Q. O'quvchi nega zerikadi? //Sharq yulduzi. 1991. -6. -B. 203-205.
4. Yo'ldoshev Q va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. Dasturiy qo'llanma. -T.: RTM, 1994. - 49 b.
5. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. - T.: O'qituvchi, 1996. -152 b.
6. Yo'ldoshev Q. O'zlikni tanish Ollohni tanishdir. //Tafakkur. -1996. -4. -B. 22-27.